

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA XOTIN-QIZLAR MASALALARI BO'YICHA MASLAHAT  
KENGASHLARI FAOLIYATIDA XOTIN-QIZLARNING JAMIYATDAGI ROLINI OSHIRISH  
MASALALARI**

**Axunova Gulchexra Nazarovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori,  
O'zbekiston-AQSH do'stlik jamiyati raisi,  
O'zbekiston xotin-qizlar "Olima" uyushmasi a'zosi

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda ayollarga bo'lgan munosabat, ajdodlarimizning ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat va izzatda bo'lishga da'vat etivchi fikrlari, muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahnamoligida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratilayotganligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ayol, ma'naviyat, gender tengligi, mehr, muruvvat, mehnatkashlik, islohotlar.

Har bir davrning o'z taraqqiyot omili, ehtiyoji, talabi va hayotiy tamoyillari mavjud. Tabiiyki, ularni shakllantirish va rivojlantirish, ularga alohida ma'no-mazmun bag'ishlash, bu davrda davlat, jamiyat hayoti, ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatining aniq yo'nalishlarini belgilab beruvchi o'lgan tarixiy voqealar bo'ladi.

Mamlakatimizda ayolga bo'lgan munosabat o'z tarixiy ildizlariga ega, ajdodlarimiz doimo ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat va izzatda bo'lishga da'vat etishgan. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahnamoligida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-87-sonli [1] hamda 2023 yil 21 dekabrda "Oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-208-sonli [2] Farmonlarining qabul qilinganligi buning yorqin ifodasidir. Mazkur Farmonlar bilan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sosial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi. 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur ishlab chiqildi.

Xotin-qizlarga ta'lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo'llab-quvvatlash maqsadida oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan, sirtqi va kechki ta'lim shaklida o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga foizsiz ta'lim kreditlarini moliyalashtirish amalga oshirildi. Oliy ta'limda o'qiyotgan talabalar sonida xotin-qizlar ulushi ko'paydi. Qizlarga o'qishga kirish uchun turli imtiyozlar berildi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, respublikadagi jami OTMda tahsil olayotgan talabalar sonidan 1 mln 312 ming talabaning 650 ming nafari erkaklar, 662 ming nafari esa xotin-qizlardir. Magistraturada tahsil olayotgan 24 ming talabaning 60 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi.

Xotin-qizlar uchun o'qishga kirishdagi asosiy imkoniyatlardan biri – ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga ajratiluvchi umumiy kvotaning 4 foizi miqdoridagi (2 mingta o'rin) grant hisoblanadi. Unga talabgorlar ham tavsiyanomani Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasidan oladi.

Tavsiyanomani kam ta'minlangan, to'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan, nogironligi bo'lgan ota-onaning farzandlari kabi bir qator toifalarga mansub xotin-qizlar olishi mumkin va ular alohida tanlov doirasida kirish imtihonlarida qatnashadi, eng yuqori ball olgan 2 ming xotin-qiz tavsiyanoma asosida grantga o'qishga qabul qilinadi.

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan 5 yillik stajga ega, oliy ma'lumotli bo'lmagan xotin-qizlarga tavsiyanomalar beriladi. Biroq tavsiyanomaning o'zi o'qishga kirishni kafolatlamaydi. Uni olgan xotin-qizlar ham hamma abituriyentlar kabi imtihon topshiradi, faqat ularning balli alohida kvota doirasida hisoblanadi. Eng yuqori ball to'plagan 500 abituriyent esa talabalikka to'lov-kontrakt asosida qabul qilinadi.

Mamlakatimizda faqat qizlar uchun quyidagi imtiyozlar berilgan:

Zulfiya mukofoti: umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori bo'lgan o'quvchilari OTMlar bakalavriatiga, bakalavriat talabalari bo'lgan laureatlar esa magistraturaga tegishli yo'nalish va ixtisoslik bo'yicha sinovlarsiz qo'shimcha davlat granti asosida qabul qilinadi.

"Hamshira" ko'rik-tanlovi: bu tanlov g'oliblari davlat komissiyasi qarori bilan tegishli OTMlar mos yo'nalishiga tanlovdan tashqari kirish imtihonisiz qo'shimcha grant asosida qabul qilinadi.

"To'maris izdoshlari" jamoaviy guruhlarini a'zolari uchun imtiyoz: ichki ishlar organlari xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'linmalari huzurida shakllantiriladigan bu bo'limning a'zolari bir yil davomida o'qish va ish jarayoniga salbiy ta'sir etmagan holda umumiy 360 soat vaqt mobaynida faoliyat olib boradi.

Ular Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti boshlig'ining tavsiyanomasiga asosan huquq-tartibot organlarining oliy ta'lim muassasalariga saralashning barcha bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tganidan so'ng yakka tartibdagi suhbatsiz (test sinovlarsiz) kvota asosida o'qishga kirishi mumkin.

Magistratura bosqichiga kirgan barcha xotin-qizlarning to'lov-kontrakt puli davlat tomonidan qoplab beriladi. Buning uchun ular belgilangan sanadan kechiktirmay rektor nomiga ariza yozishlarining o'zi yetarli.

Shu o'quv yilidan boshlab kollej va texnikumlarda qurilish, transport, kommunal, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalaridagi kasb (mutaxassislik)lar bo'yicha o'qishga kiradigan xotin-qizlar to'liq grant asosida qabul qilinadigan bo'ldi.

Prezidentlik saylovlaridan oldin Shavkat Mirziyoyev xotin-qizlar ta'limi uchun yangi soliq imtiyozi joriy etilishini ma'lum qilgandi. Unga ko'ra, oliygohda o'qiyotgan xotin-qizlar uchun, kim to'lashidan qat'i nazar, kontrakt to'lovi daromad solig'idan ozod qilinadi.

Ta'limda imtiyozlar bo'lishiga qaramay mehnat bozorida erkaklar va ayol xodimlarning topayotgan daromadlarida farq kattaligicha saqlanib qolmoqda.

Global miqyosida ayollarning maoshi erkaklar ish haqining o'rtacha 80 foizini tashkil qiladi. O'zbekistonda esa bu farq yanada katta: ayollar erkaklar ish haqining 61 foizi miqdorida maosh oladi. O'zbekistonda ish bilan band bo'lgan ayollar va erkaklar o'rtacha ish haqidagi gender tafovutini bartaraf etish 700 mingdan ortiq odamni qashshoqlikdan chiqarishga yordam beradi.

Ushbu Farmonlarning qabul qilishdan asosiy maqsad xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, ularning oila va jamiyatdagi o'rni va mavqeini mustahkamlash, salohiyatini to'la namoyon etishi, oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston ayollari davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etmoqda, ularning oiladagi mavqei mustahkamlanmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat xotin-qizlarimizga chinakam baxtli yashashi uchun, ularning huquq hamda erkinliklarni ta'minlash, intellektual va ma'naviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarni hamohang tarzda bajarishi uchun zarur imkoniyatlar yaratilyapti.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyatdagi rolini yanada oshirish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Oliy ta'lim muassalarida Xotin-qizlar bo'yicha maslahat Kengashi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat Kengashlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi"gi 2023 yil 17 iyuldagi 311-sonli buyrug'ida tasdiqlangan "Nizomi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi kambag'alchilikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi xotin-qizlar qo'mitasi, "Oila va Gender" ilmiy tadqiqot instituti, Respublika "Oqila ayollar" harakati, tegishli vazirliklarning buyruq va qarorlari, yuqori tashkilotlar tomonidan chiqarilgan normativ hujjatlar bilan ish olib bormoqda va amalga oshirilgan ishlar muntazam ravishda yig'ilishlarda ko'rib chiqib kelinmoqda.

«O'zbekiston – 2030» strategiyasida [3] xam xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlashni amalga oshirish va uning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat Kengashlarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish, jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murossasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, «Ayollar daftari» bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish xotin-qizlar o'rtasidagi muammolarni hal qilishda amaliy yordam beradi.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat Kengashlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi"gi 2023 yil 17 iyuldagi 311-sonli buyrug'ida bevosita xotin-qizlar maslahat

kengashining aniq maqsadi, vazifalari va funksiyalari aniq ko'rsatib o'tilgan bo'lib, uning eng asosiy funksiyalaridan biri sifatida "Xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan va nogironligi bor xotin-qizlarning va ayollarning manzilli ro'yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish, rehabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash ishlariga ko'maklashish masalalari kiritilgan. "Ta'lim tizimida ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash" loyihasi doirasida ro'yxat shakllantirilishi lozim.

Kengash doirasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish va chora tadbirlar rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Xotin-qizlarning mehnat jamoalarida, davlat va jamoat boshqaruvi sohasidagi rolini kuchaytirish, ulami ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasidagi maqsadli ishlarni tashkil etishga ko'maklashish va ularning fikrlarini tizimli monitoring qilish, turli ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish;

- xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarning manzilli ro'yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish, rehabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash ishlariga ko'maklashish va seminar-treninglar tashkil etish;

- xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini monitoring qilish, zo'ravonlikdan jabrlanganlarni aniqlash, ulami rehabilitatsiya qilish, huquqlarini himoya qilish bo'yicha ishlab chiqish, ularga amaliy yordam berish;

- xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasida hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;

- talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yosh oilalarni ijtimoiy faollikka yo'naltirish, ular o'rtasida ijtimoiy foydali mehnat turi bilan shug'ullanadigan, ibrat namunasiga ega bo'lgan xotin-qizlarning hayot faoliyatlari va turmush tarzlarini keng targ'ib qilish;

- xotin-qizlar o'rtasida turli ko'rik-tanlovlar va sport musobaqalarini o'tkazish, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti va "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlash uchun nomzodlarni tanlashda qonuniylik, ijtimoiy adolat, shaffoflik tamoyillariga rioya etilishi ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

Ta'lim muassasalaridagi iqtidorli qizlarni ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish, ular tomonidan yaratilgan intellektual loyihalarni targ'ib etish ishlariga ko'maklashish, o'quvchilarni bilim olishga, kitob mutolaa qilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish, muomala va nutq madaniyatini shakllantirish, shuningdek, ta'lim muassasalaridagi davomat bo'yicha yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etilishida – Tengdosh tengdoshga o'rnak shiori ostida namunali o'quvchilar faoliyatini targ'ib qilish yosh qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni ta'kidlaymizki, Oliy ta'lim muassasalarida xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida turli seminar-treninglar o'tkazish xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirishga, tizimdagi muammolarni o'rganib, uni xal qilishga amaliy yordam beradi:

<b>№</b>	<b>Mavzular</b>
1	Oliy ta'lim muassasalarida xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashlari faoliyatini tashkil etish va uni samaradorligini oshirish masalalari
2	Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash hamda oila institutini mustahkamlashga doir islohotlar
3	Xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash mexanizmlari yordamga muhtoj va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar bilan ishlash masalalari
4	Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchi xotin-qizlarni jamiyatda himoya qilish masalalari va bu borada qonunchilik hujjatlari
5	Talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yosh oilalarni ijtimoiy faollikka yo'naltirish, ular o'rtasida ijtimoiy foydali mehnat turi bilan shug'ullanadigan, ibrat namunasiga ega bo'lgan xotin-qizlarning hayot faoliyati va turmush tarzlarini keng targ'ib qilish
6	Xotin-qizlar bilan ishlashda vujudga kelgan muammolar va psixologik yondashuvlar
7	Oliy ta'lim muassasalarida xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi a'zolarining muomila va xulq-atvor madaniyati
8	Talaba-qizlarni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka yo'naltirish masalalari

**Foydalanilgan internet resurslari**

1. <https://lex.uz/docs/-5899498>
2. <https://lex.uz/docs/-6704824>
3. <https://lex.uz/docs/6600413#-6605160>